BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

THE PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF USING MEDIA TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Xaydarova Sevara Sobirovna
UBS Tashkent Branch Pedagogy II-year student
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.22774001

Abstract: This article discusses the role, importance, and effectiveness of media technologies in the educational process. In today's rapidly developing world, its modern impact, its role in improving the effectiveness of teaching and learning, and the possibilities of using media technologies in teaching specialized subjects are analyzed.

Keywords: media technologies, education, information and communication, technology, innovative education.

TA'LIM JARAYONIDA MEDIATEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI.

Anotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida mediatexnologiyalarning o'rni, ahamiyati va samaradorligi yoritiladi. Bugungi jadal rivojlanib borayotgan zamonda zamonaviy ta'siri, o'qitish va dars samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda mutaxassislik fanlarini o'qitishda mediatexnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mediatexnologiyalar, ta'lim, axborot-kommunikatsiya, texnologiya, innovatsion ta'lim.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль, значение и эффективность медиатехнологий в образовательном процессе. Анализируется их современное влияние на современный мир, роль в повышении эффективности преподавания и обучения, а также возможности использования медиатехнологий в преподавании специализированных предметов.

Ключевые слова: медиатехнологии, образование, информационно-коммуникационные технологии, инновационное образование.

Kirish. Ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy pedagogikaning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mediatexnologiyalar ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli tashkil etish, o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashda muhim vositalardan biri sanaladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish zaruriyati hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish

talabi pedagogik amaliyotga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishni taqozo qilmoqda. Multimedia vositalari – audio, video, animatsiya, grafikalar, 3D modellar, virtual va qo‘shimcha reallik platformalari kabi keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan raqamli resurslar o‘quv materiallarini yanada jonli, tushunarli va vizual qabul qilinadigan ko‘rinishda taqdim etishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat o‘quvchining darsdagi faolligini oshiradi, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va kreativ yechimlarni topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mavzuning o‘rganilganligi. Hozirgi kunda multimedia texnologiyalari yordamida interaktiv darslar tashkil etish, masofaviy o‘qitishni samarali yo‘lga qo‘yish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini shakllantirish va murakkab mavzularni soddalashtirilgan, tushunarli shaklda yetkazib berish imkoniyati mavjud. Ta’lim sifati va mazmunini yangilash jarayonida multimedia vositalarining o‘rni beqiyos bo‘lib, ular pedagoglar uchun darsni rejalashtirish, baholash, bilimlarni vizuallashtirish hamda o‘quvchilarning individuallashtirilgan o‘quv trayektoriyasini yaratishda qulay metodik qo‘llanma hisoblanadi. Shu sababli multimedia texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish nafaqat zamon talabi, balki samarador ta’lim tizimini yaratishning muhim omillaridan biridir. Shu sababli ham ta’lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Mediatexnologiyalar – bu axborotni yaratish, uzatish va qabul qilishga xizmat qiluvchi texnik va dasturiy vositalar majmuasidir. Ta’limda ular multimedia taqdimotlar, videodarslar, elektron darsliklar, onlayn platformalar, virtual labaratoriyalar va masofaviy ta’lim tizmlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot uslublari. Ta’lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish quyidagi sharoitlarni yaratadi:

- o‘quv materialini ko‘rgazmali va tushunarli tarzda yetkazish;
- talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish;
- ta’lim jarayonini induviduallashtirish
- dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish;
- o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytirish;

Mediatexnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar an’anaviy darslarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Chunki multimedia asosida tashkil etilgan darslarda audio, video va grafik materiallar orqali axborot tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Bunda asosan rangli video o‘yinlar o‘quvchilar e’tiborini tortadi va malumotni eslab qoladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, visual axborot yordamida o‘rganilgan bilim uzoq muddat xotirada saqlanadi. Shuningdek mediatexnologiyalar talabalarda axborot bilan ishlash, tanqidiy tahlil qilish va raqamli savodxonlik kompetensiyalarini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy mehnat bozorida raqobatdosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayoniga multimedia texnologiyalarini integratsiya qilish bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, multimedia vositalaridan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi an’anaviy usuldagi darslarga nisbatan sezilarli ravishda yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, mavzuning murakkab tushunchalar, jarayonlar yoki tizimlar bilan bog‘liq bo‘lgan qismida animatsiya, simulyatsiya, videodarslar kabi vositalarning qo‘llanishi o‘quvchilar uchun vizual asos yaratib, nazariy ma’lumotni tezroq va aniqroq anglashlariga xizmat qiladi. An’anaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi mavzuni eshitish yoki matn orqali o‘rganadi, bu esa ko‘plab hollarda tasavvur cheklanishiga, ma’lumotning bir xilligi sabab idrokning susayishiga olib kelishi mumkin.

Multimediaga asoslangan ta’limda esa turli idrok kanallari birgalikda ishga tushadi: o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ko‘radi, eshitadi, tahlil qiladi va amaliy faoliyatda ishtirok etadi, bu esa bilimning mustahkamlanishiga, uzoq vaqt xotirada saqlanishiga va amaliy ko‘nikmaga aylanishiga yordam beradi. Solishtirishlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv yondashuv o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, bu esa o‘quv jarayonining bosqichma-bosqich, mantiqiy va samarali kechishini ta’minlaydi.

Mediatexnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi muhim hisoblanadi. O‘qituvchi nafaqat texnologiyalardan foydalanish, balki uni pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llay olishi lozim. Mediatexnologiyalar asosida darslarni loyihalash, interaktiv metodlardan foydalanish va baholash tizimini takomillashtirish o‘qituvchidan yuqori metodik bilimlarni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limda mediatexnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, talabalarning faolligini va ijobiy fikrlashini hamda mustaqilligini ta’minlashdagi muhim omil hisoblanadi. Mediatexnologiya asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni zamonaviy talabalar asosida raqobatdosh, kreativ va malakali kadrlarni tayyorlash imkonini beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmedov B.S. Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish asoslari.- Toshkent: Fan, 2020.
2. Ismoilov R, Qodirov A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahurat.-Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Abduqodirov A.A. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.- Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
4. Jo‘rayev R.X. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim. – Toshkent: Fan va texnologiya 2019.
5. Internet saytlari.